

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Yigitalievich K. Z. FUNDAMENTALS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS OF LAW PEDAGOGICS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 10. – С. 154-160.
2. Yigitalievich, Khamrakulov Zafarjon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS'COMPETENCE IN THE USE OF LEGAL DOCUMENTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 729-733.
3. Khamrakulov Z. Y. Philosophical and historical basis of the idea of prosperity //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 6. – С. 357-363.
4. Yigitalievich K. Z. Increasing Legal Culture Of Students By Improving The Teaching Of Criminal Law //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 12. – С. 38-42.
5. Khamrakulov Z. PROBLEMS OF INCREASING LEGAL INFORMATION AND LEGAL LITERACY OF YOUTH //Models and methods in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 16. – С. 4-7.

BUYUK ALLOMALARIMIZNING YOSH AVLODNI TARBİYALASHGA OID QARASHLARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 101-guruh talabasi
Jo'rayeva Mohinur Yoqub qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
Arziqulova Surayyo

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqimizni jahonga tanitgan buyuk siymolar, ulug' allomalar, mard va qahramon farzandlarning hayot yo'li, butun faoliyati bugungi va kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi. Ularning ma'naviy durdonalarining qimmatini va ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, insonparvarlik, fidoyilik*

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshadi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi. " Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo ta'lim va tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki, bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga ota-onalarning qatori biz uchun eng yaqin yana bir buyuk zot-o'qituvchi va murabbiylarning oliyanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab qiyoslab bo'lmaydi ". Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli ko'p jihatdan tarbiyachi-o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatga bog'liq.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim va tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida so'z boradi. "Fozil odamlar shahri", " Baxt-saodatga erishuv to'g'risida ", " Ilmlarning kelib chiqishi " kabi asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan bilim egallashga dav'at etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lmagan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni yengildan og'irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi, bilim berishda, bolani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olishi, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy

faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'quvchilar zimmasiga yuklatilgan

XULOSA

Inson zotini himoya qilish eng avvalo beshikdan boshlanadi. Endigina o'sib - ulg'ayotgan yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda oilaning o'rni benihoyat katta. Ta'lim va tarbiya oilada, o'qituvchi yordamida maktabda, so'ngra jamiyatda shakllanadi. Bilamizki, oilada otaning roli benihoyat katta. Bolani tarbiyalash onaning qo'lida lekin onalar hissiyotga berilishgani sababli bolalarini tog'ri tarbiyalay olmaydilar. Shuning uchun bolaning tarbiyasi bilan tarbiyachi shug'ullanadi. Chunki u bolani tarbiyalashga aniq vazifa asosida yondashadi va u qachon bolani rag'batlantirishni va qachon jazo berishni biladi.

ADABIYOTLAR:

- 1."Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi "D.R.Babayeva
- 2." Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi "Sh.Qodirova
- 3.w.w.w geogle. uz.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARAQQIYOTIDA BUYUK ALLOMALARNING
IJODIY MEROSI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
101-guruh talabasi
Ergasheva Malika Shuhrat qizi

Annontatsiya : *Mazkur maqolada buyuk allomalar va ularning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi asarlari, maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotida qo'shgan hissasi.*

Kalit so'zlar : *buyuk allomalar , ta'lim , tarbiya, kamoloti, pandnoma.*

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi. Bu orzularni amalga oshirish uchun biz bolalarni kichik yoshligidan ta'lim-tarbiya jarayonlariga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Bunda bizga buyuk qomusiy olimlarimiz va ularning ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridan foydalanish katta samara beradi. Jumladan, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o'zining “ Baxt-saodatga erishuv to'g'risida “ , “ Fozil odamlar shahri “ , “ Aql ma'nolari haqida “ kabi asarlarida o'zining pedagogik qarashlarini aks ettirgan. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olim. Uning fikricha:

“ Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya-esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlashtiruvchi so'zlar va majbur etish. Har kimki ilm va hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Buyuk Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Kaykovus kabi ajdodlarimizning pandnoma ruhidagi asarlari ham bugungi kun yoshlar tarbiyasida o'z ahamiyatiga egadir. Ana shunday allomalarimiz siymosini va ular yozgan buyuk asarlarni maktabgacha yoshdagi bolalarga turli metod va usullar orqali o'rgatishimiz, ular yozgan asarlarni bolalar yordamida sahnalashtirib buyuk allomalar haqida ko'proq ma'lumot berishimiz bilan bir qatorda ularni ta'limiy, tarbiyaviy, axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashimiz va ularni har tomonlama barkamol shaxs qilib shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz o'rinli: “ Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlariga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur “ Demak, buyuk ajdodlarimizga xos bo'lgan shijoat, iroda, mardlik, oqillik kabi hislatlarni ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodlarimizda shakllantirish bizning dolzarb vazifamizdir.